

теоретические концепции об инновационных процессах работы в культурных центрах. в осмысленном проведении свободного времени населения.

**SUMMARY.** In the article, in the development of New Uzbekistan, spirituality is a new force of our life, a product of a new movement, the main issue of educating young people, who are our future, and theoretical concepts are given about innovative work processes in cultural centers for meaningful leisure time of the population.

## QADRIYATLAR VA YOSHLAR TARBIIYASI

I.M.Urazbaev - o'qituvchi

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so'zlar:** qadriyat, madaniyat, ma'naviyat, jamiyat, yoshlar

**Ключевые слова:** ценности, культура, духовность, общество, молодежь

**Key words:** values, culture, spirituality, society, youth

Bugun yurtimizda tinchlik va barqarorlik hukm surayotganiga qaramay, bundan buyon ham mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash ustivor maqsad bo'lib qolaveradi. Bu, bir tomondan, mustaqillik biz uchun, avvalo, o'z taqdirimizga o'zimiz egalik qilish huquqi, kelajagimizni o'z qo'limiz bilan barpo etish, yurtimiz boyliklaridan faqat xalqimiz va vatanimiz manfaati yo'lida foydalanish huquqini bergani O'zbekiston yoshlari ham ana shu oliy ne'matdan bahramand bo'layotgani bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, mustaqillik yillarida ana shu muqaddas qadriyat va milliy an'analarga tayangan holda yashash huquqini ham berdi. Uni saqlab qolish uchun mustaqillikni asrab-avaylash kerak bo'ladi. [1]

Ma'lumki, mustaqillikgacha milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilar edi. Navro'z, ramazon, qurbon hayiti kabi muqaddas milliy bayramlar taqiqlangan edi. Amir Temur, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oniy, Baxouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi milliy-ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o'chirib tashlashga harakat qilinar edi. Bugun mustaqillik tufayli ularning nomlari, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz tiklanib, o'zligimizni chuqurroq anglab bormoqdamiz. Bugun yoshlar o'z milliy tarixini o'rganmoqda. Ona tili, madaniyat, urf-odat va an'alarining qayta tiklanib borayotgani ularni o'zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani ham muhim yutiqdur. "Bugun yoshlar shunchaki milliy ma'naviy qadriyatlarini o'rganib qolayotgani yo'q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan

bahramand bo'lmoqda. Xorijiy davlatlarda o'qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg'or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar". Ma'lumki, tarbiya inson shaxsi ma'naviyatini, e'tiqodini, o'zini anglash, yonatrofga bo'lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Shunday ekan, ushbu jarayon mutanosibligini ta'minlashda ta'lim- tarbiya ishini uyg'un tarzda olib borish lozim bo'ladi. Ta'lim orqali yoshlar haytida o'z o'rinlarini topishda ma'lum bir kasb-hunarni o'rganish bilan birga, o'zlarini bo'lajak hayotga tayyorlab boradilar. Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi, qayta tiklanayotganligi, jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lida muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljيتishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, boshlovchi ahamiyatga egadir.

Mustaqillik esa ana shu vazifani amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Xalq yoki millat o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'lsagina, o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lini erkin belgilab olishi, yoshlarni o'z milliy qadriyatlari negizida tarbiyalash mumkin. Biroq jamiyat hayotining barcha jabhalarini erkinlashtirmasdan haqiqiy erkinlikka erishib bo'lmaydi. Erkinlik g'oyasi va xalqning ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun yuksalishning qudratli manbai bo'lib xizmat qilgan. Sharqda shaxs erkinligi va huquqlari, xatti-harakati, xulq-atvori, jamiyatdagi o'rni, ma'suliyatini idrok etish darajasiga baho berilganda muayyan guruh, etnos, xalq, millat, jamiyatning manfaatlari, huquqlariga alohida qadriyat va an'analardan kelib chiqqan holda yondashiladi. Mustaqil O'zbekistonning kuchli davlatdan kuchli jamiyat

sari taraqqiyoti davrida, asriy ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimizning tarixiy tajribalaridan to'g'ri foydalanib, ularning ibratli ishlaridan saboq olish mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurilishi vazifalarini amalga oshirishga, xalqimizning ma'nan yuksalishiga xizmat qiladi.

Xalqimiz mustaqillikning o'z hayotida va taqdirida hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini tobora teranroq anglab yetmoqda. Avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalari borib taqaladi. Spitamen, Muqanna va Jaloliddin Manguberdi tug'risidagi asarlarda, Alpomish, To'maris va Shiroq tug'risidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik, halq va yurt ozodligi uchun fidoyilik kabi ko'plab umuminsoniy qadriyatlar tasvirlangan. Ma'naviy merosimizning yorqin namunasi – «Avesto» zardo'shtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi, qadrlash mezonlari, o'sha davrdagi milliy g'oyalar yorqin ifodalangan.

Qadriyatlar mavzusining tarixi, ildizlari va insoniyatga hos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o'tmishga ega. G'arb olimlari bu borada, asosan, Yevropa madaniy merosi va g'oyalari tayanadilar, ko'plab allomalarning nomlarini tilga oladilar. G'arbda qadriyatlar bilan shug'ullanadigan falsafiy soha Aksiologiya (aksiyo-qadriyat, logos - ta'limot) fanining shakllangani ham ularning bunday qarashlari uchun muayyan asos bo'ladi. Biz Suqrot va Aflotun, Arastu va Hegellar katta e'tibor bergan bu mavzuning G'arb falsafasida o'z tarixiga ega ekanligiga shubha qilmaymiz. Dunyoning oltidan bir qismini egallab turgan mamlakatda qadrlashning umuminsoniy tamoyillarini barqaror qilish u yoqda tursin, haqiqiy qadriyatshunoslik nuqtai nazaridan tadqiqotlar olib borishga ham izn berilmas edi. Faqat asrimizning 60-yillariga kelib, qadriyatlar muammosi ba'zi mutahassislar tomonidan tahlil qilina boshlagan bo'lsada, 90-yillargacha falsafa darsliklarida alohida mavzu sifatida o'z o'rniga ega bo'lmadi. Hukmron mafkuraning tarkibiy qismiga kirmaganligi, mavzularining juda kam tadqiq qilinganligi va nihoyatda oz ahamiyat berilganligidan mahsus falsafiy tadqiqotlar sohasiga aylana olmadi. Aksiologiya nomi bilan

sobiq Ittifoqda birorta ham darslik yoki o'quv qo'llanmasi chop etilmagan, hatto universitetlarning faylasuf, jamiyatshunos, tarixchi va boshqa ijtimoiy mutahassislar tayyorlaydigan gumanitar bo'limlarida ham bu sohaga oid mahsus bilimlar berilmas edi. Qadriyatlar tug'risidagi g'arbda keng tarqalgan aksiologiya fani rivojlangan mamlakatlarda inson qadri va haq-huquqlariga doir ko'pgina tamoyillarning amaliyoti uchun nazariy asoslardan biri bo'lgan ilmiy sohalar qatoriga kiradi. Mustaqillik va qadriyatlar mavzusi. Istiqlol yillarida O'zbekistonda bu mavzuga umuminsoniy tamoyillar asosida yondashish shakllandi. Bunday qarashning vujudga kelishi, qadriyatlarining ijtimoiy va ma'naviy yangilanishi, jamiyat a'zolarining kamoloti hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati masalalariga davlat miqyosida yuksak e'tibor ko'rsatilayotganligi mazkur soha rivojining bosh yo'nalishidir.

Qadriyatlarini mustaqillikni mustahkamlashning ma'naviy omillaridan biri sifatida qadrlanishi borasidagi ijobiy jarayonlar tadqiqotlarni ko'paytirish, ularga nisbatan mas'uliyatni yanada oshirishni taqozo qilmoqda. Istiqlol asrlar davomida shakllangan o'ziga hos sharqona va o'zbekona qadrlash masalalari va me'yorlarini qayta tiklash hamda zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi. Mustaqillik istiqloq davrining eng asosiy qadriyatidir. Zero, mustaqil bo'lmagan mamlakatning qadriyatlar tizimi hech qachon to'kis bo'lmaydi. Mustamlaka mamlakatning ma'naviy hayotida mustamlakachilarning qadriyatlari ustuvor bo'lishi aniq. Faqat mustaqillikkina ushbu holatni tubdan o'zgartiradi, mamlakatning qadriyatlar majmuasini jahon tizimining teng huquqli va haqiqiy qismiga aylantiradi. Shu sababdan ham istiqloq yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishni taqozo qildi. Bu zaruriyat esa qadriyatlarini qayta baholash, yurtimizda sharqona, azaliy va umuminsoniy qadrlash mezonlari ustuvor bo'lgan hayot tarzini shakllantirish jarayoni bilan uyg'unlashib ketdi. Qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlarga e'tibor va bu boradagi yangi tamoyillardan ta'limtarbiyada foydalanish ehtiyoji oshayotganligining sababi ham ana shunda.

Bugun O'zbekistonda yashayotgan har bir yosh mustaqillikning bergan ne'matidan barhamand bo'lmoqda, deb ayta olamiz.

### Adabiyotlar

1. Bektursinova G. Kitobxonlik madaniyati ilmiy falsafiy aksiologik taxlil. Ijtimoiy fikr inson huquqlari. 2022-jil №4.

**REZYUME.** Ushbu maqolada xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi, qayta tiklanayotganligi, jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lida muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljtitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, boshlovchi ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarimiz haqida fikr yuritiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье размышляются о духовности и культуре нации, ее подлинной истории и самобытности, ее возрождении, ценностях, важных для обновления и развития нашего общества.

**SUMMARY.** This article reflects on the spirituality and culture of the nation, its true history and identity, its revival, and values important for the renewal and development of our society.

## **PROBLEM-BASED LEARNING AS THE FORMATION OF DIALECTICAL THINKING**

**K.B.Yusupov**- *senior lecturer*

*Nukus branch of Uzbekistan State Institute of Arts and culture*

**Tayanch so'zlar:** muammoli ta'lim, pedagogika, ta'lim tizimlari, dialektik narsalar.

**Ключевые слова:** проблемное обучение, педагогика, образовательные системы, диалектическое мышление.

**Key words:** problem-based learning, pedagogy, educational systems, dialectical thinking.

**Introduction.** Problem-based learning is commonly referred to as the driving force behind the contemporary model of developmental learning. However, what is the primary emphasis of problem-based learning? What are the primary aims and objectives at the beginning? Problem-based learning is recognized in contemporary education as a method for fostering mental resilience, cognitive engagement, creative aptitude, and autonomous thinking in individuals. When individuals are integrated into a certain collective, these factors that contribute to the growth of one's character create a culture centered around dialectical thinking, which is the focus of the study of dialectical logic. Problem-based learning primarily emphasizes the development of dialectical reasoning, wherein the subject's actions align with the fundamental and profound interpretations of both natural and social reality. Dialectical thought assumes the existence of an autonomous and self-governing individual. However, the liberty associated with this topic is not synonymous with randomness; rather, it is grounded in adhering to a personally embraced objective need. Problem-based learning, as a way of fostering dialectical thinking, cannot rely on artificially constructed subjective approaches to problematizing the content.

The educational problem lies inside the content being studied rather than being external. The issue is in the manner in which the objective contradiction of the reality under examination is conveyed to the perceiving individual. Thus, the issue of education must be framed as an

inherent contradiction. The solution to this dilemma should align with the progression towards a synthesis that is comprehended through dialectical means. Put simply, problem-based learning will not yield tangible outcomes if we choose to inundate schools with a multitude of problems, some of which are entirely rhetorical in nature. An authentic outcome can only be attained when the lesson, in its structure, centers on the process of revealing a dialectical conflict that originates from the actuality being examined. The whole potential of problem-based learning can only be fully realized when the fundamental essence, the driving force behind problem-based learning, is employed as the mechanism for transitioning from abstract concepts to tangible applications in the teaching process.

However, while discussing problem-based learning as a method for developing dialectical thinking, it is important to note that we are not only referring to altering the methods of instruction. The clash between conventional and modern learning methods is evident not only in the structure of the learning process but also in its primary objectives and significance. Given the reorientation of the entire system of studied sciences, it is imperative to modify the methodology and ways of arranging the learning process. In this analysis, we want to demonstrate the shift in focus of academic disciplines in response to the emerging issues encountered by secondary and tertiary educational institutions. To illustrate this, we will examine the teaching